

## ABDULLA AVLONIY - DUNYO O'QITUVCHILARIKA O'RNAK

*Pedagogika va Psixologiya Fakulteti:  
Pedagogika yo'nalishi talabasi: Nurmamatova Sevara Sobir qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuvga asosan bilimlarini rivojlantirish, o`qituvchilarning egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini muntazam ravishda oshirib borishga targ`ib qilish, iqtidorli o`quvchilarning ota-onalari o`quvchiga intellektual potensialining muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratishlari, haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** kompitensiyaviy yondashuv, bilim, ko`nikma, malaka, intellektual potensial, pedagogik yondashuvlar.

Abdulla Avloniy nafaqat o`tgan asrning, balki global rivojlanish ayni yuqori cho`qqisiga kelgan hozirgi XXI asrning ham zamonaviy pedagoglari uchun yuksak namuna bo`ladigan pedagog desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kundagi ayrim pedagoglar tomonidan amalga oshirayotgan pedagogik faoliyatlar insonni chuqur o`yga toldirib, kelajagimiz bo`lgan o`sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga yanada e'tibor bilan qarashga undab, ta'limiy islohotlar yo`lida sharqona ta'lim- tarbiya hamda sharqona yondashuvning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

XX asr o`zbek milliy ma'rifatparvarligi yo'nalishining atoqli namoyondasi, iste'dodli shoir va dramaturg, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmandto`quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo`lganlar. Abdulla Avloniy eski usul mакtabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o`qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtarda o`qir edi. U o`z tarjimai holida shunday yozadi: “12 yoshimdan madrasada dars o`qiy boshladim. 13 yoshimdan yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o`qir edim. 14 yoshimdan o`sha zamonga muvofiq har xil mavzuda she`rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjimon” gazetasini o`qib, zamondan xabardor bo`ldim”. Avloniy madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug`ullandi. 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagи maktablar ochdi. Turkistonda birinchilardan bo`lib maktab o`quv dasturlariga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko`rsatdi, O`qish va o`qitish usuliga isloh kiritib ta'limni real turmush bilan bog`lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o`rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o`tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy

yo‘nalishini kuchaytirishga alohida e’tibor berdi. Maktablardagi o‘quv asbobjihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta’minlash maqsadida, do‘srlarining ko‘magida «Jamiyat xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi. 1920-yillarda Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy 1920 yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o‘lka bilim yurtida, so‘ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U xalq maorif institutida, “Turkfront” harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1924-29 yillarda O‘rta Osiyo Davlat universitetida va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qilish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi. Abdulla Avloniy she’rlarida ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu markaziy o‘rin egallaydi. Shoир ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. «Maktab», «maorif», «ilm», «fan» kabi tushunchalar shoир she’rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi, «jaholat» va «nodonlik» esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Jumladan, “O‘z mamlakatimizda” she’rida maishat uchun pul-boylikni ayamagan, ammo bola tarbiyasi uchun sariq chaqani ham ravo ko‘rmaydigan kimsalarni “Ilm uchun pulni ko‘zları qiymas”, deb qoralaydi. Yoki “Maktab” she’rida:

Maktab misni tillo qilur,  
Maktab sizni mullo qilur,  
G‘ayrat qilib o‘qing o‘g‘lon, –

deydi shoир va insonni zulm, nohaqlik, adolatsizlikdan xalos etuvchi najot yo‘li, bu ma’rifat, maktab ekanligini ta’kidlaydi. U 1934 yil 25 avgustda Toshkentda vafot etdi. Abdulla Avloniyning mehnati yuksak taqdirlanib, unga o‘zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, pedagog xodimlar tayyorlashda uzoq yillik halol mehnati uchun 1925 yilda «Mehnat qahramoni» unvoni, 1930 yilda mehnatsevarligi, ilmiy ishlari va asarlari uchun «O‘zbekiston maorifi zarbdori» unvoni berildi.

Istiqlol yillarida Avloniy ijodi bo‘yicha juda ko‘p olimlarning ishlari bor. Jumladan, Begali Qosimov adib haqida bir adabiy portret bilan bir ilmiy risola

e'lon qilgan. Yana u U.Dolimov bilan hamkorlikda "Sharaflı hayot" maqolasini yozgan. Adibning bolalar adabiyotiga qo'shgan ulushi haqida R.Barakaevning "O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" nomli monografiyası e'lon qilingan. Bu kitobda olim taniqli adibning bolalar adabiyotini yuksaltirish yo'lida chekkan zahmatlarini birma-bir ko'rsatib o'tgan.

Abdulla Avloniy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan ham boshlang'ich sinflarga o'qish, ona tilidan saboq berar edi. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga hamda eng yaxshi o'qiganlarga va muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlari uchun qilardi. Milat bolasi savodini chiqarish, ularning dunyo ilmlaridan xabardor bo'lishi uchun butun vujudi bilan harakat qildi. Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarda ustuvor tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, A.Avloniy qarashlari bugungi kun pedagoglri uchun, shubhasiz, o'rnak va ibratdir!

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq. T., 2008.
2. Qosimov B.va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.
3. Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., 2008. Internet manbalari: